

2018 yil yanvar-fevral oyida amalga oshirilgan qurilish ishlari


2018 yilning fevral oyida Samarqand viloyatida 337,0 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 101,9 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 6,7 mlrd. so'mni tashkil etib, o'sish sur'ati 147,0 foizni tashkil qildi.



Jami qurilish ishlarining hajmidan kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi qurilish ishlarining 55,4 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun mo'ljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yo'llarini ta'mirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha ob'yektlari (muktablar, muktabgacha ta'lim muassasalari), namunaviy loyihamalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida o'z faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 333,1 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlarining hajmi 98,8 foizni tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning o'sish sur'atiga nisbatan 1,6 bandga oshgan. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 3,8 mlrd. so'mlik qurilish montaj ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish montaj ishlari hajmining 1,2 foizini tashkil qildi.



2018 yilning fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi bino va inshootlar qurilishining ulushi 273,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,3 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,7 mlrd. so'mni tashkil qilib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,1 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish ob'ektlarining ulushi 37,1 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 157,2 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 1,6 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 55,2 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 22,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,7 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 0,5 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 83,3 foizni tashkil qildi.